



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 41-47 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TANNARX TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI PASAYTIRISH IMKONIYATLARI



Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tannarx tushunchasining iqtisodiy mazmuni ochib berilgan va uni pasaytirish masalalari yoritilgan. Tannarx tushunchasiga iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislarining ta'rif va fikr-mulohazalari o'rganilgan hamda mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan, xulosa shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit sozlar: tannarx, xarajat, tannarx tushunchasining iqtisodiy mazmuni, tannarx tushunchasining iqtisodiy mazmuni, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari.

Аннотация. В данной статье раскрывается экономическое содержание понятия себестоимости и освещаются вопросы её снижения. Изучаются определения и мнения экономистов и отраслевых специалистов относительно понятия себестоимости, формулируется авторский подход. Указываются возможности снижения себестоимости продукции, делается вывод и разрабатываются рекомендации.

Ключевые слова: себестоимость, затраты, экономическое содержание понятия себестоимости, экономическое содержание понятия себестоимости, возможности снижения себестоимости.

Abstract. This article explores the economic concept of cost and discusses ways to reduce it. Definitions and opinions of economists and industry experts on the concept of cost are examined, and the author's approach is formulated. Opportunities for reducing product costs are identified, conclusions are drawn, and recommendations are developed.

Key words: cost, costs, economic content of cost, economic content of cost, opportunities for cost reduction.

Kirish

Bugungi kunda donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish va ishlab chiqarish xarajatlarini maksimal darajada kamaytirish hamda mahsulot tannarxini sezilarli darajada pasaytirish muhim masalalardan hisoblanadi. Buning uchun esa, xo'jalik yuritish faoliyatida xarajatlari o'z vaqtida, to'g'ri hisobga olish, tannarx shakllanishini doimiy monitoring qilib borish va buxgalteriya hisobi ishlarini to'g'ri tashkil etish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy

natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida» 54-son qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda «mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi» [1] deb belgilab qo'yilgan. Yani, bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar tannarxga qo'shiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

«Tannarx» tushunchasiga ham iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan yondashuvlar va fikrlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Iqtisodchi olimlar tomonidan «Tannarx» tushunchasiga mualliflik yondashuvlar

Mualliflar	Tannarx tushunchasiga mualliflik yondashuvlari
R.D.Dusmuratov., B.Y.Menglikulov	“Tannarx - xo'jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichidir” [2]
B.Ro'zmetov, O.Bekturdiyev, Q.Yo'idasheva, S.Matkarimov	“Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi” [3]
S.S. Barteneva	“Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi – bu sintezlangan ko'rsatkichdir. Shuning uchun tannarxning barcha jihatlariga mos keladigan yagona to'g'ri ta'rifni topish juda qiyin” [4]

Respublikamiz iqtisodchi olimi A.N.Achilovning fikricha, “xarajatlarni kal'kulyasiya moddalarini umumiy tartibga nisbatan boshqa tarkib bo'yicha guruhlashtirishdan maqsad, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalagan holda har bir xarajat turi bo'yicha tarkibini to'g'ri aniqlashtirib olishdan iboratdir” [5]. A.N.Achilov tomonidan kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining kal'kulyasiya moddalari bo'yicha guruhlanishiga yondashuv ishlab chiqilgan (2-jadval).

2-jadval

Iqtisodchi olim A.N.Achilovning ishlab chiqarish xarajatlarining kal'kulyasiya moddalari bo'yicha guruhlanishiga yondashuvi¹

Amaldagi ishlab chiqarish xarajatlar kal'kulyasiya moddalari	Taklif etilayotgan kimyo sanoati korxonalarida kal'kulyasiya moddalari
1. Xom-ashyo va materiallar	1. Xom-ashyo
-	2. Materiallar
2. Texnologik maqsadlarga mo'ljallangan yoqilg'i va energiya	3. Texnologik maqsadlarga mo'ljallangan yoqilg'i va energiya
-	4. Kimyoviy moddalar
3. Qaytarilgan chiqindilar	5. Qaytarilgan chiqindilar
4. Ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy ish haqlari	6. Ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy ish haqlari

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

5. Ishlab chiqarishdagi ishchilarning qo‘shimcha ish haqlari	7. Ishlab chiqarishdagi ishchilarning qo‘shimcha ish haqlari
6. Ijtimoiy sug‘urta va boshqa majburiy to‘lovlarga ajratmalar	8. Ijtimoiy sug‘urta va boshqa majburiy to‘lovlarga ajratmalar
7. Ishlab chiqarishni tayyorlash va o‘zlashtirish xarajatlari	9. Ishlab chiqarishni tayyorlash va o‘zlashtirish xarajatlari
8. Asbob-uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari	10. Asbob-uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari
9. Umum ishlab chiqarish xarajatlari	11. Umum ishlab chiqarish xarajatlari
10. Yaroqsiz mahsulotlardan yo‘qotishlar	-
11. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	10. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari

Iqtisodchi olim A.T.Mamajonov “Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to‘g‘ri yuritish maqsadida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda uning yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq. Buxgalteriya hisobi, rejalashtirish va mahsulot tannarxini aniqlash maqsadida xarajatlar iqtisodiy elementlari bo‘yicha va kal‘kulyasiya moddalari bo‘yicha hisobga olinadi. Xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo‘yicha hisobga olish moliyaviy hisobda yuritilib, uning tarkibi standartlar asosida tartibga olinsa, kal‘kulyasiya moddalari hisob yuritish ko‘proq boshqaruv hisobi vazifasiga kiradi. Xarajatlarning elementi bo‘yicha guruhlariga ajratishdan maqsad ularning strukturasi va dinamikasini tahlil qilish asosida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat” [6] deb izohlagan.

A.T.Mamajonov tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarining elementlari va moddalari bo‘yicha turkumlanishiga yondashuv ishlab chiqilgan (3-jadval).

3-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kal‘kulya moddalari bo‘yicha turkumlanishi²

Iqtisodiy elementlari bo‘yicha	Kal‘kulyasiya moddalari bo‘yicha
1	2
1. Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	1. Urug‘ va ko‘chat materiallari
	2. Yoqilg‘i va elektrenergiya
	3. Organik va mineral o‘g‘itlar
	4. Yonilg‘i va moylash materiallari
	5. Yem-xashak va to‘shamalar va hokazo
2. Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	6. Asosiy ish haqlari
	7. Qo‘shimcha ish haqlar
	8. Yollanma ishchilar ish haqi
3. Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	9. Yagona ijtimoiy to‘lov
	10. Mehnat birjasiga
	11. Kasaba uyushmasiga
4. Asosiy vositalar va	12. Asosiy vositalarning eskirishi

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	13. Nomoddiy aktivlarning eskirishi
	14. Asosiy vositalarni ta'mirlash va texnik qarov
	15. Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning ijara haqlari
5. Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	16. Turli ishlar va xizmatlar
	17. Soliqlar, yig'imlar va hokazo

Yuqoridagi xarajatlarni kal'kulyasiya moddalari bo'yicha olimlarning fikr va yondashuvlarini etirof etgan holda adabiyotlar, normativ hujjatlar hamda tadqiqotlar olib borish natijasiga asoslanib don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kal'kulyasiya moddalari bo'yicha quyidagicha turkumlash tavsiya qilinadi (4-jadval).

Metodologiya

Maqolada tannarx tushunchasining iqtisodiy mazmunini chuqur tahlil qilish hamda uni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

1. Tahliliy (analitik) yondashuv

Tannarx tarkibini tashkil etuvchi asosiy elementlar (xom-ashyo, ish haqi, energiya sarfi, amortizatsiya va boshqalar) iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Bu orqali tannarxning shakllanish mexanizmi hamda unga ta'sir qiluvchi omillar aniqlab berildi.

2. Taqqoslash usuli

Turli sohalar va korxonalar misolida tannarx darajalari o'rganildi, ularning o'zaro farqlari taqqoslab chiqildi. Bu usul tannarxni pasaytirish bo'yicha eng samarali yondashuvlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

3. Empirik (amaliy) usul

Amaliyotda faoliyat yuritayotgan ayrim korxonalar misolida tannarxni pasaytirish bo'yicha qo'llanilgan usullar o'rganildi. Korxonalar hisobotlari, moliyaviy ko'rsatkichlar va boshqa statistik ma'lumotlar asosida amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

4. Statistik usullar

Raqamli ma'lumotlar asosida tannarxning o'zgarish tendensiyalari tahlil qilindi. Ular yordamida tannarx pasayishining iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar

Nazariy manbalarga ko'ra, tayyor mahsulot tannarxini shakllantiruvchi barcha xarajatlarni hisobga olish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadida amaliyotda ikki turdagi xarajatlar klassifikatsiyasi qo'llaniladi:

1. Elementlar bo'yicha klassifikatsiya,
2. Hisob moddalari bo'yicha klassifikatsiya.

Elementlar bo'yicha guruhlash quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi: moddiy xarajatlar; mehnatga haq to'lash xarajatlari; ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar; asosiy vositalarning amortizatsiyasi; boshqa (turli) xarajatlar.

4-jadval

Don mahsulotlari korxonalarida xarajatlarni kal'kulyasiya moddalari bo'yicha turkumlanishi³

Xarajatlar moddalari	Xarajat moddalarining mazmuni
Xom-ashyo materiallar	Un mahsulotini ishlab chiqarishda foydalaniladigan bug'doy materiallari qiymati, Ishlatiladigan bug'doy, tn Bug'doy ulgurji sotish narxi (QQS siz)
Transport-tayyorlov xarajatlari	Bug'doyni elevatordan tegirmonga bo'lgan oraliqqa (avtotransport va teplovozda) tashish xizmatlari
Jami qo'shimcha maxsulotlar	Ishlab chiqarish jarayonida ayirilib chiqariladigan mahsulotlar (kepak 22 %, don chiqindisi 3 %)
Bug'doy narxi chiqindi ayrilgan hisobi bilan	Asosiy bug'doy narxidan, ayirilib chiqqan qo'chimcha mahsulotlar qiymati olib tashlangandan so'nggi bug'doy narxi
Tashish, saqlash va ishlab chiqarishdagi bug'doyning yo'qotilgan qiymati	Donni saqlash, quritish, tozalash, qayta joylashtirish va qayta ishlash jarayonida kamayish va yo'qotishlarni qoplash uchun moliyaviy zaxira xarajatlari
Bevosita xarajatlar (tegirmon)	Asosiy ishlab chiqarish jarayonida tegirmonda ishlatiladigan bevosita xarajatlar
Yoqilgi	Ishlab chiqarishda sarflanadigan yoqilg'i-moylash materiallari (benzin, dizel yoqilg'isi, solidol, nigrol, mator moyi, moylash materiallari)
Ehtiyot qismlar	Ishlab chiqarishda tegirmonda foydalanishi ko'zda tutilgan har xil (podshivniklar, sito, kovsh, lenta) va boshqa ehtiyot qismlar
Boshqa materiallar	Vitamin, ip, emblema, qop va boshqalar
Moli yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan to'lovlar	Elektr energiya, gaz, suv va boshqalar
Oylik ish haqi xarajatlari	Asosiy ish haqi, qo'shimcha ish haqlari, Yo'llanma ishchilarga mavsumiy to'lanadigan ish haqlari xarajatlari
Ijtimoiy soliq	Ijtimoiy tsoliq, kasaba uyushmasiga to'lovlar, vaqtincha ishga yaroqsizligi bo'yicha to'lovlar va pensiya jamg'armasiga shaxsiy to'lovlar xarajatlari
Amortizasiya	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizasiyasi, eskirish xarajatlari
Boshqa xarajatlar	Sertifikatlash, gazasiya, fumigasiya va boshqa xarajatlar
AUP xarajatlari	Mehnat haqi bo'yicha xarajatlar, boshqa ma'muriy xarajatlar

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Xarajatlar moddalari	Xarajat moddalarining mazmuni
Sotish xarajatlari	Reklama va sotish xarajatlari, boshqa sotish xarajatlari (birja, broker va boshqalar)
Boshqa operasion xarajatlar	Bank operasialariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar, xayriya yordam, davr xarajatlari va boshqa operasion xarajatlar (mulq, yer, suv soliqlari va boshqalar)
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	Olingan bank kreditlarini to'lashdagi hisoblangan foizlar

Shunga qaramay, elementlar bo'yicha guruhlash usulida xarajatlarning qaysi yo'nalish (asosiy faoliyat, yordamchi ishlab chiqarish va h.k.) bo'yicha va qaerda qo'llanilganini aniq oldindan belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun bu turdagi guruhlash orqali xarajatlarning samaradorligini chuqur tahlil qilish qiyin.

Eng muhim kamchilik shundaki, bu klassifikasiya asosida aniq bir mahsulot turining birlik tannarxini aniqlab bo'lmaydi. Mahsulot turning bir birlik tannarxini aniqlash uchun esa kal'kulyasiya moddalari (hisob moddalari) bo'yicha xarajatlarni guruhlash zarur bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulot tannarxini tizimli ravishda pasaytirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblanadi. "Foyda olishning asosiy omillaridan biri sotilgan mahsulot tannarxi hisoblanadi. Agar hisobot davrida u ko'paygan bo'lsa, qolgan barcha narsalar teng bo'lsa, ushbu davr uchun foyda miqdori ushbu omil tufayli bir xil miqdorda kamayishi kerak. Foyda hajmi va tannarx o'rtasida teskari funksional bog'liqlik mavjud. Xarajat qanchalik past bo'lsa, foyda shunchalik ko'p bo'ladi va aksincha" [7].

"Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini ifodalovchi tannarx xarajatlarni daromad bilan o'lchash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tannarx ichki ishlab chiqarish zahiralari safarbar etishda, eng kam xarajat bilan eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishishda muhim rol o'ynaydi" [8].

Mahsulotlar tannarxi - mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari, shuningdek uni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq boshqa xarajatlar yig'indisi. Mahsulot tannarxi uni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib, xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiradi va barcha ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish natijalarini jamlaydi. Korxonaning moliyaviy natijalari, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur'ati, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati uning darajasiga bog'liq.

Xulosa

Donni qayta ishlash korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy omillari - urug'lik, yoqilg'i-moylash materiallari, texnika xarajatlari, ishchi kuchi, agrotexnika xizmatlari va suv ta'minotiga bog'liq. Bu omillarni optimallashtirish orqali tannarxni pasaytirish mumkin. Jumladan: texnologik yangiliklar va agrotexnik tadbirlarni to'g'ri qo'llash donli ekinlarning hosildorligini oshirish bilan birga resurs sarfini kamaytirishga xizmat qiladi, bu esa birlik mahsulot tannarxining tushishiga olib keladi; kooperatsiya va

agroklastlar orqali fermerlar resurslarni birgalikda ishlatib, texnika va xizmatlardan samaraliroq foydalanishlari mumkin; mahalliy sharoitga mos intensiv agrotexnik tadbirlar (masalan, tomchilatib sugʻorish, agrodron, no-davriylik) resurs sarfini kamaytirib, tannarxni tushiradi; davlat tomonidan subsidiyalar va soliq imtiyozlari, ayniqsa energiya va texnika xarajatlari uchun, ishlab chiqaruvchilarga katta yordam beradi. Donni qayta ishlash korxonalarida tannarxni pasaytirish boʻyicha quyidagi amaliy takliflarni keltirish mumkin: resurslarni tejovchi agrotexnologiyalarni keng joriy etish: minimal ishlov berish texnologiyasi (No-Till); samarali suv tejovchi sugʻorish tizimlari; agrodron va GPS texnologiyalar orqali optimallashtirilgan urugʻ ekish va pestitsid sepish; energiya sarfini kamaytirish: quyosh energiyasidan foydalanish (masalan, suv nasoslarida); yoqilgʻini tejovchi zamonaviy texnikalarga oʻtish; agrokooperatsiyalarni rivojlantirish: texnika va uskunalarni ijaraga olish orqali xarajatlarni boʻlishish; birgalikda xarid qilish orqali urugʻlik, oʻgʻit va yoqilgʻi narxlarini pasaytirish; mahalliy urugʻchilikni rivojlantirish: import oʻrnini bosuvchi, mahalliy iqlimga mos va yuqori hosilli navlarni ishlab chiqarish va ommalashtirish; sertifikatlangan urugʻlikni subsidiyalash; ilmiy-tadqiqot va tajriba xoʻjaliklari bilan hamkorlikni kengaytirish: mahalliy sharoitga mos texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish; agroiqtisodiy monitoring orqali har bir agrozonada tannarx shakllanishini oʻrganish; davlat tomonidan koʻmakni oshirish: energiya va suv uchun subsidiya mexanizmlarini takomillashtirish; tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarini berish; qishloq xoʻjaligi texnikasi xaridida davlat kafolatlari va kreditlar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi toʻgʻrisida» 54-son qarori. 1999 yil 5 fevral. <https://lex.uz/uz/docs/-264422>
2. Р.Д.Дусмуратов., Б.Ю.Менгликулов. Қишлоқ хўжалигида бухгалтерия ҳисоби ва статистика асослари. -Т.: «Фан ва технология», 2014, 392 б.
3. Б.Рўзметов, О.Бектурдиев, Қ.Йўлдашева, С.Маткаримов. Таннарх калькуляцияси. Тошкент, «ИЛМ ЗИЁ», 2006. - 230 б.
4. Бартенева С.С. [Analysis of scientific knowledge about the cost category in the economic environment]. Наука и современность=Science and Modernity, 2010, но. 3-3, pp.72-76. (Ин Русс.)
5. А.Н.Ачилов. Кимё саноати корхоналарида товар-моддий захиралар ҳисобини такомиллаштириш. Диссертация. –Т.: 2019. -68 б.
6. А.Т.Мамажонов. Фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот таннархини такомиллаштириш. Диссертация. –Т.: 2019. 78 б.
7. Ладутько Н.И. “Бухгалтерский учет”, -Минск: Книжный Дом, 2005. – 1053 с. (236 с)
8. Под общей редакцией доктора экономических наук, профессора В.И. Стражева “Экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия” - Минск – “Высшая школа” - 2005 г. 136 с.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

